

BADIY OBRAZNING MOHIYATI VA TASNIFI

Mavlyanova Shahnoza Dehqonboevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy obraz tushunchasining nazariy asoslari, uning mohiyati va adabiyotshunoslikdagi talqinlari tahlil qilinadi. Obraz nazariyasiga doir G'arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari, shuningdek, o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy yondashuvlari o'rganiladi. Badiiy obrazning yaratilish tamoyillari, tasnifi hamda obrazlilikning adabiyotdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, obrazning estetik va g'oyaviy vazifalari hamda badiiy asar tarkibidagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *obraz, badiiy obraz, obrazlilik, tasvir, timsol, harakter.*

Har qanday badiiy asarda voqealar rivojini ta'minlaydigan, muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashga xizmat qiladigan obrazlar tizimi mavjud bo'ladi. Aynan obrazlar asar syujetining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lib, voqealar va hodisalarni o'zaro bog'laydi. Badiiy asardagi obrazlar bajaradigan vazifasi va tutgan o'rniga ko'ra turlicha bo'lib, ular oddiy ishtirokchi, qahramon yoki bosh qahramon sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham obraz va obrazlilik masalasi badiiy adabiyotning eng muhim nazariy tushunchalaridan biri sanaladi. Adabiyotshunoslikda ushbu tushunchalarning mohiyati va xususiyatlari yuzasidan turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, ular turlicha tahlil qilinadi.

“Obraz” atamasi yunoncha eydos so'zidan olingan bo'lib, “ko'rinish”, “qiyofa”, “manzara” kabi ma'nolarni anglatadi. Mazkur tushuncha nafaqat predmet va hodisalarning tashqi ko'rinishini, balki ularning ichki mohiyati, mazmuni va g'oyaviy mazmunini ham ifodalaydi[1;45]. Vaqt o'tishi bilan ushbu ma'nolar uyg'unlashib, borliqning badiiy aks ettirilishi mazmunini kasb etgan. Qadimgi yunon faylasufi Platon obrazni real dunyoning san'atdagi in'ikosi sifatida talqin qilgan bo'lsa, Aristotel uni “mimesis”[4;70], ya'ni voqelikni taqlid qilish nazariyasi orqali izohlagan. Adabiyotshunoslikda obraz mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, Immanuel Kant obrazni his-tuyg'u va tafakkurning uyg'unligi sifatida baholagan. Nemis mutafakkiri Fridrix Shelling esa obrazda real va ideal, borliq va g'oya, cheklanganlik va cheksizlik kabi qarama-qarshi tushunchalar o'zaro birlashishini ta'kidlaydi[2;6]. Shu tariqa, obraz san'atning eng muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, unda hayotiy voqelik va ijodkorning estetik qarashlari uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Georg Vilgelm Fridrix Gegelning “Estetika” asarida obraz tushunchasi keng va chuqur mazmunda talqin etiladi. Olim bu haqda: “Biz poetik tafakkurni obrazli tasavvur qilamiz. Obrazni estetik reallik, badiiy me'yor, g'oya, umumiylik, originallik

hamda mazmun va shaklning dialektik birligi sifatida tushunamiz”[3;78], - deb yozadi. Ushbu fikrda obraz nafaqat badiiy asarning tarkibiy qismi, balki san’atning mohiyatini belgilovchi asosiy estetik kategoriya ekanligini ko’rsatadi.

Adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri obrazlilik bo’lib, uning mazmun-mohiyati Gegel ilgari surgan “obrazli tafakkur” (мышление в образах) tushunchasida o’z ifodasini topadi. Mazkur nazariya uzoq yillar davomida badiiy adabiyot va umuman san’atning asosiy qonuniyatlaridan biri sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Obrazli tafakkur san’atning barcha turlariga xos bo’lsa-da, adabiyotda u so’z vositasida yaratilishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi hayot hodisalari, inson xarakteri va ruhiy kechinmalarini til imkoniyatlari orqali badiiy obrazga aylantiradi.

Shu sababli obrazlilik adabiyotning so’z san’ati sifatidagi o’ziga xos tabiatini namoyon etuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. San’atning borliqni anglash va tasvirlashga xizmat qiluvchi boshqa shakllaridan farqli ravishda, adabiyot voqelikni obrazlar vositasida aks ettiradi. Binobarin, obrazli tafakkur va obrazlilik badiiy ijodning eng muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, Belinskiyning “fan mantiqiy tushunchalar orqali fikr yuritish bo’lsa, san’at obrazli tafakkurdir”[5;90], - degan mashhur ta’rifi adabiyotshunoslik va estetika sohasidagi ko’plab lug’at hamda qo’llanmalarda bugungi kunga qadar o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ushbu qarashga ko’ra, fan borliqni ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va mantiqiy xulosalar orqali anglatadigan bo’lsa, san’at hayotni badiiy obrazlar vositasida idrok etadi va tasvirleydi. Shu bois obrazli tafakkur san’atning, xususan, badiiy adabiyotning eng muhim va o’ziga xos belgilaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Obrazli aks ettirish insoniyat taraqqiyoti davomida uzoq va murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o’tgan. Ibtidoiy jamiyat davrida san’at, asosan, atrofdagi voqeahodisalar, harakatlar va shaxslarni bevosita taqlid qilish yoki ularning tashqi o’xshashligini yaratishga qaratilgan edi. Biroq san’at taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq voqelikning barcha jihatlarini emas, balki muayyan hayotiy ehtiyojlar va sharoitlar uchun muhim hisoblangan tomonlarini tasvirlashga intilish kuzatiladi. Inson tafakkuri va ongining rivojlanishi bilan bir qatorda moddiy borliq haqidagi tasavvurlar ham tobora boyib borgan. Natijada olamni anglashga doir mifologik qarashlar shakllanib, ular badiiy tafakkurning yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim omil vazifasini bajargan. Shu tariqa obrazli fikrlash insonning borliqni estetik idrok etish usuli sifatida asta-sekin takomillashib, san’atning asosiy xususiyatlaridan biriga aylangan.

Aleksandr Genisning fikricha, G’arb va Sharq poetik tafakkuri o’rtasidagi asosiy farq ularning turli badiiy tamoyillarga tayanishida namoyon bo’ladi: “G’arb va Sharq poetikalari o’rtasidagi farq ularning birinchisi metaforaga, ikkinchisi metonimiyaga tayanishida ko’rinadi. Ya’ni G’arb san’ati obraz tevaragida qurilsa, Sharq san’ati esa iz tevaragida quriladi”[6;79], - deb ta’kidlaydi. Ushbu qarashga ko’ra, G’arb badiiy tafakkurida obraz yaratish va voqelikni metaforik talqin qilish ustuvor ahamiyat kasb

etsa, Sharq san'atida predmet yoki hodisaning bevosita o'zidan ko'ra, uning belgisi, ishorasi va izi orqali ma'no ifodalash tamoyili yetakchilik qiladi. Olim tomonidan qo'llangan "iz tevaragida" tushunchasi, avvalo, Xitoy ierogliflari va ularga xos ramziy tafakkur bilan bog'liq bo'lib, unda voqelikning o'zi emas, balki uning ma'no tashuvchi belgisi markaziy o'rin egallaydi. Shu jihatdan Sharq va G'arb poetikasi obraz yaratish usullari hamda badiiy tafakkur xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Shuningdek, Izzat Sultonning Adabiyot nazariyasi darsligida obrazning badiiy tafakkurdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Muallif san'at va ilmning voqelikni anglashdagi o'ziga xos jihatlarini izohlar ekan, quyidagi fikrni keltiradi: "Faylasuf sillogizmlar bilan, shoir esa obrazlar va kartina (manzara) bilan gapiradi, ikkalasi ham bir narsani gapiradi... Biri isbot etadi, ikkinchisi ko'rsatadi va ikkalasi ham ishontiradi. Faqat biri mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi esa kartina (manzara) bilan ishontiradi"[7;12]. Ushbu mulohaza badiiy obrazning o'quvchi ongiga ta'sir etishdagi estetik imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, adabiyot hayotni obrazlar vositasida tasvirlash orqali inson qalbi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy obraz va xarakter masalasi hikoya janrining nazariy xususiyatlarini yoritishda ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Golovenchenko hikoya janrida qahramon xarakteri to'liq taraqqiyot jarayonida emas, balki muayyan holat va vaziyatda namoyon bo'lishini ta'kidlab, "hikoyada xarakter taraqqiyotda berilmaydi, har bir shaxs tayyor holda namoyon bo'lib, uning biror xususiyati ochib beriladi"[8;57], - deya e'tirof etadi. Bu fikr hikoyada xarakter yaratishning ixcham va lo'nda usuliga asoslanishini ko'rsatadi.

Shu kabi qarashlarni L.Timofeyev nazariyasida ham uchratish mumkin. Olimning ta'kidlashicha: "Xarakter shakllangan tayyor holda ko'rsatiladi. Aks ettirilayotgan voqeagacha xarakterning qanday bo'lganligi, u tugagandan so'ng qanday bo'lishligi tasvirlanmaydi, yoki yo'l-yo'lakay aytib o'tilishini"[9;78]. Ushbu nazariy qarashlar hikoya janrida qahramonning butun hayot yo'li emas, balki uning xarakterini belgilovchi muhim bir jihat yoki ruhiy holat tasvir markaziga chiqarilishini anglatadi.

Natijada hikoyada obraz qisqa hajmda bo'lsa-da, o'ziga xos va ta'sirchan tarzda namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, obraz borliqdagi hodisa va voqealarning ijodkor tafakkuri orqali badiiy qayta talqin etilishi natijasida yaratilgan, estetik mazmun va badiiy qiymatga ega bo'lgan tasvirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. (2011). Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Gegel, G. V. F. (2006). Lektsii po estetike. In P. A. Nikolaev & A. Ya. Esalnek (Tuz.), Vvedenie v literaturovedenie. Khrestomatiya (8-bet). Moskva: Vysshaya shkola.

3. Krupchanov, M. V. (Tuz.). (2007). Vvedenie v literaturovedenie. Moskva: Oniks.
4. Literaturnyy entsiklopedicheskiy slovar. (1987). Moskva: Sovetskaya entsiklopediya.